

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14549038>

Fatxullayeva Ruhangiz Muxtor qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d Sh.A.Donayeva

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalar asosida o'quv jarayonlarini tashkil qilish usullari va shakllari to'g'risida umumiy xulosalarga bag'ishlangan va bunda tashqari "sinf dan tashqari darslarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari" haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik o'yinlar, rag'batlantirish.*

Аннотация: *Данная статья посвящена общим выводам о методах и формах организации учебного процесса на основе современных информационных технологий в обучении учащихся младших классов, а также использовании инновационных технологий на внеклассных уроках».*

Ключевые слова: *начальная школа, современные технологии, педагогические технологии, инновационные технологии, педагогические игры, стимулирование*

Abstract: *This article is devoted to general conclusions about the methods and forms of organizing the educational process based on modern information technologies in teaching primary school students, as well as the use of innovative technologies in extracurricular lessons.*

Keywords: *primary school, moderne technologies, pedagogical technologies, innovative technologies, pedagogical games, stimulation*

Biz bilamizki, Ta'lim bu - o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ushbu jarayonda bolaning taraqqiyoti, ma'lumoti bilan birga tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchilar o'z bilimi, ko'nikmasi va malakalarini mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa bu darslarni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'la oladilar. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi hamda amaliyotga tatbiq etishida o'ziga xos tafovutlarga tayanadilar. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilarning dars vaqtidagi hamkorligi va birdamligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinf dan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.[1]

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir darsni zamonaviy axborot vositalari va turli didaktik o'yinlardan foydalanib tashkil qilishlari yanada yaxshiroq samara beradi. Negaki boshlang'ich sinf o'quvchilari ya'ni 6-7 yoshli bolalar hayotida maktabning ilk yo'llari ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayotga ya'ni maktab degan hayotga kirib boradi. Endi bola jamoaning yangi a'zosi ekanligini his qilishi, intizomga bo'ysunishi, yangi rejimga moslashishi kerak bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning oldida bir qancha vazifalari va yumoshlari bor. Masalan: maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik hamda davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto, maktabgacha ta'lim muassasalaridan kelgan o'quvchilarini uchun ham bu oson o'tmaydi. Uydan maktabga kelgan O'quvchilarda esa yanada qiyin kechadi. Ayniqsa, sinfda 40–45 daqiqali darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish va uzoq aqliy mehnat bolalarni juda tez charchatadi, va shu sababdan bola nafaqat o'qishdan balki maktabdan ham sovib ketishi mumkin. [6] Shuning uchun ham o'qituvchilar o'quvchilarning maktabdagi vaqtlarini qiziqarli tashkil etishi, motiv hosil qilishi va uni rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Bilamizki motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalarning yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan hamda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish o'quvchilarni darsga jalb etishda samarali natija beradi. Mana shunday axborot texnologiyalaridan foydalanib o'tilgan darslarda bolalarning diqqati to'liq jalb etiladi va ularni eslab qolish qobiliyatini ham yaxshi rivojlanadi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli o'yinlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarurdir. Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tishimiz kerakki, boshlang'ich sinflarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan interfaol metodlar hamda ta'limiy o'yinlardan foydalangan holda dars o'tish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralari kengaytirish bilan bir qatorda ularni darslarda bo'lgan qiziqishlarini oshirishga hamda darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga yordam beradi. O'qituvchilarning hozirgi kundagi zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan oqilona foydalanib, darslarni zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini yanada kafolatlaydi.[2]

Hozirgi kundagi zamonaviy axborot texnologiyalaridan boshlang'ich ta'limdagi barcha o'quv fanlarida samarali foydalanishimiz mumkin. Yuqurida aytganinizdek darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili, Rus tili va Ingliz tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterda turli xil amaliy topshiriqlar bajaradilar. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashqlar, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan kompyuter dasturlarini tayyorlashimiz

mumkin. Unga ko'ra fanga oid qoidalarni o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika mavzulari bo'yicha turli- tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi, albatta. [4] Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bir qatorda ta'lim jarayonida interfaol metodlarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Bunday bo'lishining eng katta sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqatgina tayyor bilimlarni egallashlari zarur bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganishga va chuqurroq fikrlashga, tahlil qilishga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi esa bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik rollarini bajaradi. Bugungi kundagi zamonaviy ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Zanjir» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», "FSMU", «Guruhlarda ishlash», «Qorbo'ron», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. [3], [5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli o'laroq innovatsion texnologiyalar asosida o'qish har bir dars jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T: Fan va texnologiya, 2008.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)- Qarshi: 2011.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006
5. WWW. Ziyonet. uz
6. WWW.arxiv.uz